

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

«RO'YXATGA OLINDI»

№ BM-343-3400-3.06
«09» ___ 06 ___ 2003 y.

«TASDIQLANDI»

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi
S.Tulyaiov
«1» iyul 2003 y.**

«IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI»

fanidan

DASTUR

**340000 - “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi barcha bakalavriat yo'nalishlari
uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: i.f.n., dots. Jo'raev T.T.,
i.f.n., dots. Rustamov B.,
i.f.n., dots. Islomov A.,
kat. o'qit. Mustafaqulov Ya.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. Jumaqulov T.T.,
i.f.d., prof. Razzoqov A.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani oliy o'quv yurtlarida bakalavriat darajasidagi malakali iqtisodchilar tayyorlash talabini hisobga olib, talabalarga kishilik jamiyati rivojlanishning har xil bosqichlarida vujudga kelgan iqtisodiy ta'limotlarni, ularning iqtisodiy siyosatga va iqtisodiy islohotlarga ta'sirini o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi. Dasturda O'zbekistonda iqtisodiy ta'limotlarni rivojlanishi va ularning iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog'liqligi masalalariga ham katta ahamiyat berilgan.

Программа по предмету «История экономических учений» составлена с учетом требований предъявляемым к подготовке высококвалифицированных экономистов соответствующей степени бакалавра. Обучение студентов на основе данной программы имеет целью показать место и роль экономической мысли на различных стадиях развития человеческого общества, их влияние на экономическую политику и экономические реформы. Особые место в программе занимают вопросы развития экономической мысли в Узбекистане и их тесной связи с экономической политикой.

Program on the subject "The history of economic teachings" is formed with provision for the requirements of preparing the high qualified economist bachelors. learning the students on the base of given program has shown a place and role of economic thoughts on different stages of developments of human society, their influence to the economic policy and economic reforms. Particular place in the program occupy questions of development economic thoughts in Uzbekistan and their close relation with the economic policy.

1. SO'Z BOSHI

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fanining mazkur namunaviy dasturi O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risidagi qonuni asosida va kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib tayyorlandi.

Shu maqsaddan kelib chiqib, fanni o’qitishda quyidagi vazifalarni hal qilish ko’zda tutiladi:

- – talabalarni iqtisodiy ta’limotlarning nazariy asoslari bilan qurollantirish;
- – iqtisodiyot va bozor munosabatlari to’g’risidagi amaliy ko’nikmalarni hosil qilish;
- – talabalar ongiga milliy mustaqillik va milliy mafkura g’oyasini singdirish.

“Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani davlat standartlari bo’yicha bakalavrlar darajasidagi iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash o’quv rejasiga kiritilgan barcha iqtisodiy fanlar bilan bog’liq bo’lib, ularni chuqur o’rganishga yordam beradi.

Fanni o’qitish bo’yicha talabalar bilimiga, ko’nikma va mahoratlariga qo’yiladigan talablar

Iqtisodiy ta’limotlar tarixi fani bo’yicha talabalar bilimiga qo’yiladigan talablar dasturga kiritilgan har bir mavzudagi muammolarni o’zlashtirish va ular bo’yicha mustaqil fikr yuritish darajasi bilan belgilanadi.

Talabalar ilk iqtisodiy fikr va g’oyalarni paydo bo’lishi, iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning iqtisodiyotning rivojlanishiga oid iqtisodiy ta’limotlarini chuqur bilishlari zarur. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy ta’limotlardan mustaqil O’zbekiston milliy iqtisodiyotida qay darajada foydalanish lozimligini bilishlari zarur.

Seminar mashg’ulotlari bo’yicha bajariladigan ishlarga minimal miqdordagi talablar

Seminar mashg’uloti mavzulari namunaviy dastur asosida tuzilgan bo’lib, har bir mavzuga kiritilgan savollar va tavsiya qilingan adabiyotlar ro’yhati bilan birga, alohida uslubiy qo’llanma shaklida ishlab chiqildi. Seminar rejasidagi mavzular savollari ma’ruzada bayon qilinadigan masalalar bilan mazmunan bir xil bo’lsa - da, shaklan ularni takrorlamaydi.

Seminar mashg’ulotlari talabalarda turli iqtisodiy g’oya va kontseptsiyalarning mohiyatini to’laroq tushunish hamda ularda amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga

qaratilishi lozim. Bundan tashqari seminar mashg'ulotlari talabalarning ma'ruzasida olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi, bo'yicha tavsiyalar

Oliy ta'limning davlat standartlari bo'yicha o'quv rejasida fanga, jami 81 soat ajratilgan bo'lib undan 54 (66,7%) soat auditoriyadagi o'quv soatlaridir. Auditoriyadagi o'quv yuklamasining 36 (56,7%) soati ma'ruza va 18 (33,3%) soati seminar darslariga rejalashtirilgan.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholab berish reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. O'quv rejasida fanga ajratilgan soat yuklamasidan kelib chiqib aniqlanadigan reyting ballari (54) nazoratning alohida turlariga quyidagi tartibda taqsimlanadi.

- - joriy baholash seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (12,6 ball);
- - oraliq baholash ma'ruza darslariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (25,2 ball);
- - yakuniy baholash o'quv soatlari yuklamasining 30 foizi (16,2 ball).

Nazoratning alohida turlariga ajratilgan reyting ballari ishchi o'quv rejasida ko'zda tutilgan soatlar yuklamasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Joriy baholash uchun ajratiladigan reyting ballari talabalarning seminar darsdagi faolligi, ilmiy referat tayyorlanganligi va boshqa rejalashtirilgan ishlarni (mustaqil ish bajarish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va h.k.) bajarganligi uchun qo'yib boriladi.

Oraliq baholashda talabalarning ma'ruza darslaridagi faolligi hisobga olinadi hamda ikki marta oraliq baholash (yozma ish, test yoki baholashning boshqa turi) o'tkazilib, ularga tegishli ball ajratiladi.

Yakuniy baholash ballari talabalarning tayanch tushuncha va iboralar bo'yicha bajargan yozma ishi uchun qo'yiladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarni qo'llash

Fanni o'qitishda kompyuter, audio - video jihozlari, dioproektor, kodoskop va boshqa informatsion texnik vositalaridan foydalanish ham hisobga olinadi.

Kompyuter xonalaridan va o'qitishning boshqa texnik vositalaridan foydalanib o'tkaziladigan darslar institut va kafedra moddiy - texnika imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur namunaviy dastur asosida fanning ishchi (o'quv) dasturi ishlab chiqiladi. Ishchi o'quv dasturida ma'ruza va seminar darslariga ajratilgan soatlar yuklamasi mavzular bo'yicha taqsimlab chiqiladi. Har bir mavzuga tegishli asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim.

Mustaqil ta'lim uchun fanga ajratilgan soatlar miqdori ham alohida mavzularga taqsimlab ko'rsatilishi tavsiya etiladi.

2. FAN DASTURI

Asosiy iqtisodiy g'oya va nazariyalarning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining predmeti va qadimgi dunyodagi ilk iqtisodiy fikrlar. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining predmeti va uslubi. Qadimgi Sharqdagi iqtisodiy fikrlar. *Ko'xna Vaviloniya iqtisodiy fikrlari. «Avesto» iqtisodiy fikrlari.* Qadimgi Xindistondagi iqtisodiy fikrlar. «Artxashastra»dagi ilgari surilgan g'oyalar. Qadimgi Xitoy, Yunoniston va Rimdagi iqtisodiy g'oyalar (Konfutsiy Ksenofond, Platon (Aflatun) Aristotel, Katon, Kolumella, Varron).

O'rta asr davridagi iqtisodiy ta'limotlar. O'rta asrdagi iqtisodiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari. Arab mamlakatlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Qur'oni Karimdagi iqtisodiy ko'rsatmalar. Ibn Xalduunning iqtisodiy qarashlari. O'rta Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar. (*Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, A.Temur, A.Navoiy*) G'arbiy Evropadagi iqtisodiy qarashlar, kononistlarning iqtisodiy qarashlari. F.Akvinskiy.

Merkantilizm. Merkantilizm vujudga kelishining ijtimoiy - iqtisodiy asoslari. *Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mazmuni. Dastlabki va keyingi merkantilizmning o'ziga xosligi.* Iqtisodiy g'oyalarning rivojlanishida merkantilizmning roli.

Klassik iqtisodiy maktab

Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi. Klassik iqtisodiy nazariyalarning vujudga kelishining tarixiy shart - sharoitlari. Uilyam - Petti klassik iqtisodiy maktab asoschisi. U.Pettining boylik, qiymat, pul va daromadlar to'g'risidagi nazariyalari. P. Buagilberning iqtisodiy ta'limoti. Fiziokratizmning umumiy xarakteristikasi. *F.Kene*

- *fiziokratlar ta'limotining asoschisi*. Sof mahsulot, sinflar, kapital va takror ishlab chiqarish nazariyalari.

A. Tyurgoning ish haqi, sinflar, qiymat, pul va foiz nazariyalari.

Fiziokratizmning ahamiyati va tarixiy taqdiri.

Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi. A.Smitning iqtisodiy nazariyalari. A.Smitning «Odamlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» asari. Smitning mehnat taqsimoti, ayirboshlash qiymati va pul to'g'risidagi ta'limoti. «*Ko'rinmas qo'l*» to'g'risida tushuncha. Smit unumli va unumsiz mehnat to'g'risida.

D.Rikardoning klassik maktabni rivojlanishiga qo'shgan xissasi. Rikardoning qiymat, pul, renta, ish haqi va foyda to'g'risidagi ta'limoti. Qiyosli ustunlik nazariyasi.*

J.B.Seyning iqtisodiy ta'limoti «Bozor qonuni», «Qiymat va ishlab chiqarish omillari nazariyalari».

T.Maltusning «Nufus qonuni». Maltus va hozirgi zamon.

Klassik iqtisodiy maktabning yakunlanishi. J.S.Millning iqtisodiy ta'limoti. J.S.Mill metodologiyasi. *J.S.Millning qiymat, baho, pul, kapital va foyda to'g'risidagi nazariyalari*.

Markscha iqtisodiy g'oyalarning tarixiy taqdiri. Ijtimoiy formatsiyalar nazariyasi. Marksning kapital asari va unda yoritilgan nazariyalar (qiymat, qo'shimcha qiymat, ish haqi, foyda, foyda normasi, renta, iqtisodiy tsikllar).

Yangi klassik maktab. Marjinal inqilob (1870 - yillar) uning mazmuni va asosiy yakunlari. *Me'yorli foydalilik nazariyasi va buyumning sub'ektiv qiymati*. Yangi klassiklar. Avstriya, Kembridj va Amerika maktablarining yangi klassik yo'nalishining kelib chiqishidagi roli.

A.Marshall va yangi klassik vaziyat. Qiymat (qimmat) va narxning shakllanish nazariyasi. Talab va taklif.

Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalar

Keynschilik va yangi keynschilik ta'limoti. Keynschilikning paydo bo'lishi. J.M. Keynes ta'limoti. *J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asaridagi asosiy g'oyalar*. Samarali talab. Insonning psixologik moyilligi. Multiplikator. Pul bozori va foiz stavkasi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning chora - tadbirlari.

Yangi keynschilikning mohiyati.

Monetarizm. Monetarizm kontsepsiyasi. M.Fridmen va uning «monetar» nazariyasi. *Monetarizmning asosiy qoidalari*. Pul massasi va iqtisodiy tsikllar. Monetar kontsepsiyasining keynschilikdan farqi.

Iqtisodiy ta'limotlardagi institutsionalizm iqtisodiy yo'nalishi. *Institutsionalizmning umumiy tavsifi*. T.Veblen - institutsionalizm asoschisi. Amerika institutsionalizmining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi.

J.K.Gelbreyting «Yangi industrial jamiyat kontsepsiyasi».

Institutsionalizmning asosiy muammosi va masalalari. «Konvergenziya kontsepsiyasi», «Xalq kapitalizmi», «Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat», «Iqtisodiy o'sish bosqichlari».

Iqtisodiy o'sish nazariyalari va modellari. Iqtisodiy o'sish nazariyalari va ularning talqini. Davlat investitsiyasi - iqtisodiy o'sish kafolati. O'z resurslariga suyanish va bozor mexanizmlarini ifodalashuvi printsiplari. *Iqtisodiy o'sish modellari*. E.Denison: iqtisodiy o'sish «arifmetikasi». Iqtisodiy o'sish omili. «Osiyo fojiasi».

Neoliberalizm va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi. Neoliberalizm nima «Ordoliberalizm». F.Xayek: iqtisodiy erkinlik falsafasi. V.Oyken «iqtisodiy tizim» turlari to'g'risida. L.Erxardning iqtisodiy islohotlari. *Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligining mohiyati*. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligida davlatning roli.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining predmeti va ilk iqtisodiy fikrlar. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining predmeti va uslubi.* Ko'xna Vaviloniya iqtisodiy fikrlari. «Avesto» iqtisodiy fikrlari. Qadimgi Xindistondagi iqtisodiy fikrlar. «Artxashastra»dagi ilgari surilgan g'oyalar. Qadimgi Xitoy, Yunoniston va Rimdagi iqtisodiy g'oyalar (Konfutsiy Ksenofond, Platon (Aflatun) Aristotel, Katon, Kolumella, Varron).

O'rta asrdagi iqtisodiy fikrlar. Merkantalizm. Arab mamlakatlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Qur'oni Karimdagi iqtisodiy ko'rsatmalar. Ibn Xaldunning iqtisodiy qarashlari. O'rta Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar.* (Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, A.Temur, A.Navoiy). G'arbiy Evropadagi iqtisodiy qarashlar kononistlarning iqtisodiy qarashlari. F.Akvinskiyning, merkantilizm iqtisodiy ta'limoti.

Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi. Uilyam - Petti klassik iqtisodiy maktabning asoschisi.* U.Petting boylik, qiymat, pul va daromadlar to'g'risidagi nazariyalari. P. Buagilberning iqtisodiy ta'limoti. F.Kene - fiziokratlar ta'limotining

asoschisi. Sof mahsulot, sinflar, kapital va takror ishlab chiqarish nazariyalari. A. Tyurgoning ish haqi, sinflar, qiymat, pul va foiz nazariyalari.

Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishi. A.Smitning iqtisodiy nazariyalari. a). Smitning mehnat taqsimoti, ayrboshlash qiymat va pul to'g'risidagi ta'limoti. b). «Ko'rinmas qo'l» to'g'risida tushuncha. Rikardoning qiymat, pul, renta, ish haqi va foyda to'g'risidagi ta'limoti. Qiyosli ustunlik nazariyasi. J.B.Seyning iqtisodiy ta'limoti «Bozor qonuni», «Qiymat va ishlab chiqarish omillari nazariyalari». T.Maltusning «Nufus qonuni». Maltus va hozirgi zamon.*

Klassik iqtisodiy maktabning yakunlanishi. J.S.Mill metodologiyasi. J.S.Millning qiymat, baho, pul, kapital va foyda to'g'risidagi nazariyalari.* Markscha iqtisodiy g'oyalarning tarixiy taqdiri. Kapitalda yoritilgan nazariyalar: (qiymat, qo'shimcha qiymat, ish haqi, foyda, foyda normasi, renta, iqtisodiy tsikllar).

Yangi klassik maktab. Marjinal inqilob (1870 - yillar) uning mazmuni va asosiy yakunlari. Me'yorli foydalilik nazariyasi va buyumning sub'ektiv qiymati. Yangi klassiklar.* Avstriya, Kembridj va Amerika maktablarining yangi klassik yo'nalishining kelib chiqishidagi roli. A.Marshall va yangi klassik vaziyat. Qiymat (qimmat) va narxning shakllanish nazariyasi. Talab va taklif.

Keynschilik. Keynschilikning paydo bo'lishi. J.M. Keyns ta'limoti

J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asaridagi asosiy g'oyalar: (samarali talab. Multiplikator. Pul bozori va foiz stavkasi). Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning chora - tadbirlari. Yangi keynschilikning mohiyati.*

Monetarizm. Monetarizm kontseptsiyasi. M.Fridmen va uning «monetar» nazariyasi.* Monetarizmning asosiy qoidalari. Pul massasi va iqtisodiy tsikllar. Monetar kontseptsiyasining keynschilikdan farqi.

Institutsionalizm Institutsionalizmning umumiy tavsifi. T.Veblen - institutsionalizm asoschisi.* Amerika institutsionalizmining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi. J.K.Gelbreyting «Yangi industrial jamiyat kontseptsiyasi». Institutsionalizmning asosiy muammosi va masalalari. (konvergentsiya kontseptsiyasi),«xalq kapitalizmi», «industrial jamiyatdan keyingi jamiyat»,«iqtisodiy o'sish bosqichlari).

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOIYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHAQA DIDAKTIK MATERIALLARI RO'YXATI

Ko'rgazma - namoyish materiallari:

- - Ko'rgazmali qurollar;

Qadimgi dunyodagi ilk iqtisodiy fikrlar mavzusida "Arxashayra" g'oyalari "Avesto" iqtisodiy fikrlari. Merkantilizm mavzusida dastlabki va keyingi merkantilizmning asosiy fikrlari.

Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi mavzusida F. Kenening "Iqtisodiy jadvali".

- - Sxema va grafiklar;

Keynschilik va yangi keynschilik ta'limoti mavzusida "Insonning psixologik moyilligi" (sxema).

O'quv filmlari:

- - "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari" mavzusida.

Didaktik materiallar:

Darsning maqsadi, mazmuni va guruh tarkibiga ko'ra:

- - o'qitish uslublari (ma'ruza matni va adabiyotlar);
- - o'quv vositalari (ko'rgazmali qurollar, sxema, jadval, grafik, videofilm, slayd va boshqalar);
- - darsni tashkiliy sharoitlari (texnik vosita, videolar);

Multimedik ilovalar:

- - "Yangi klassik maktab" va "Keynschilik" mavzulari bo'yicha.

5. FANNI O'ZLASH TIRISHNI NAZORAT QILISH TURLARI

Joriy baholash: seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (12,6 ball) seminar darslariga qatnashishdagi faolligiga, mavzu yuzasidan savol - javob o'tkazish, referat tayyorlash, mustaqil ish bajarish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash, konspektlarni tekshirib borish asosida to'planadi.

Oraliq baholash: ma'ruza darslariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (25,2 ball), ma'ruza darsidagi faolligiga, test natijalariga, yozma ish natijalariga, talabalar o'rtasida mavzu yuzasidan dialog o'tkazish, davra suhbatini uyushtirish natijalariga muvofiq baholash asosida to'planadi.

Yakuniy baholashga o'quv soatlari yuklamasining 30 foizi ajratiladi (16,2 ball) Tayanch tushunchalar bo'yicha yozma ish o'tkazilganda ishning hajmi va iqtisodiy tushunchalarning mohiyatining ochib berilish darajasi baholashda asosiy mezon hisoblanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. - T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1998, Tom 6.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: Sharq, 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 1999. Tom 7.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovd maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
7. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. - T.: O'zbekiston, 2001 /Tom 9.
8. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish - bosh yo'limiz. //O'zbekiston ovozi, 2002, 16 fevral.
9. Bartenev S.A. Ekonomicheskie teorii i shkoli. - M.: Bek, 1996.
10. Vseminaraya istoriya ekonomicheskoy misli. - M.: Misl, 1997.
11. Jid. Sh., Rist Sh., Istoriya ekonomicheskix ucheniy. - M.: Tsentr, 1998.
12. Ibragimov A. Biz kim O'zbeklar. - T.: Sharq, 1999.
13. Islamov A., Egamov E. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (o'quv qo'llanma) - T.: TMI, 2001.
14. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (o'quv qo'llanma) - T.: TDIU, 1997.
15. Kostyuk V.N. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. - M.: Tsentr, 1998.
16. Mayburd E.M. Vvedenie v istoriyu ekonomicheskoy misli. Ot prorokov do professorov. - M., 1996.
17. Titova N.E. Istoriya ekonomicheskix ucheniy. - M.: Gumanitarniy izdatelskiy tsentr VLADOS, 1997.
18. Fridmen M. Kolichestvennaya teoriya deneg. - M.: Elf - Press, 1996.
19. Xrestomatiya po ekonomicheskoy teorii. - M., 2000.
20. Yusupov Yu.K. Stanovlenie i razvitie ekonomicheskoy nauki. - T.: A.O. Uchkun, 1999.
21. Yadgarov Ya.B. Istoriya Ekonomicheskix ucheniy. - M.: Infra - M, 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Blaug M. Ekonomicheskaya misl v retrospektive. - M., 1994.
2. Bele - Baverk. Osnovi teorii tsennosti xozyaystvennix blag. - M.: Ekonomika, 1992.
3. Keyns Dj. M. Obshchaya teoriya zanyatosti, protsentov i deneg. - M., 1993.
4. Menger K. Osnovaniya politicheskoy ekonomii. (Avstriyskaya shkola v politicheskoy ekonomii) - M.: Ekonomika, 1992.
5. Marshall A. Printsipi ekonomicheskoy nauki. - M.: Progress, 1993.
6. Oyken V. Ekonomicheskie sistemi. - M., 1993.
7. Samuelson P. Ekonomika. - M.: Algon, 1992.
8. Xaysk F.A. Doroga k rabstvu. - M.: Ekonomika, 1992.
9. Erxard L. Blagosostoyaniya dlya vsekh. - M., 1991.
10. Ekonomicheskie misli. - M., 1995.
11. A history of ekonomik theory and method. Robert B. Ekelund. Jr. Robert F. Hebert. 1990.
12. Economics Explained. Robert Heilbront and Lester Thurow. Touchstone. 1998.
13. A history of progress. A chkonicle of the AUDIAG company. 1992.